

## Xotiramizda barhayot siymo

Ziyorat qalblarning xotirjamligi, ko'ngil osoyishtaligi uchun huzur baxsh etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 27 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'anievich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida"gi PQ - 3404 - sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 30 yanvar kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I. Raximov, fakultet Kasaba uyushmasi raisi Sh. Maxatovlar rahbarligida fakultetning faol talabalarining Islom Karimov nomidagi ilmiy - ma'rifiy memorial majmuasiga tashrifi uyushtirildi.

Talabalar majmuada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov sharafiga qad ko'targan haykal poyiga gul qo'yish marosimini o'tkazib ta'zim bajo keltirishdi.



Shundan so'ng talaba - yoshlar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, dunyo tan olgan buyuk siyosatchi, davlat arbobi, yurtimiz otasi Islom Abdug'anievich Karimovning ona Vatan mustaqilligi, el - yurt ravnaqi yo'lidagi ulkan tarixiy xizmatlari aks etgan fotogalereya ko'rgazmasini tomosha qilishdi va qalblarida ajdodlarimizni amalga oshirgan ishlaridan g'ururlanish hissi jo'sh urdi.

**"Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti**  
**ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari I. Raximov axboroti**  
**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**